

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GEOLOGIK ATAMALARNING XUSUSIYATLARI

*Turdikulova Barno Toirkulovna, Guliston davlat pedagogika  
instituti katta o'qituvchisi*

## FEATURES OF GEOLOGICAL TERMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

*Turdikulova Barno Toirkulovna, Gulistan State Pedagogical  
Institute, senior lecturer*

## ХАРАКТЕРИСТИКА ГЕОЛОГИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

*Турдикулова Барно Тоиркуловна, старший преподаватель  
Гулистанского государственного педагогического  
института*

**Annotatsiya:** Maqolada ingliz va o'zbek tili geologik terminlarining cog'ishtirma tahlili, antonimiya, sinonimiya, polisemiya kabi hodisalarining namoyon bo'lishi ochib berilgan va tegishli xulosa chiqarilgan.

**Kalit so'zlar:** geologik atamalar, terminologiya, antonim, sinonim, polisemiya, tarjima, lug'at.

**Abstract:** The article reveals a comparative analysis of geological terms in English and Uzbek languages, the manifestation of such phenomena as antonymy, synonymy and polysemy and draws appropriate conclusions.

**Key words:** geological terms, terminology, antonyms, synonyms, polysemy, translation, dictionary.

**Аннотация:** В статье раскрыты сравнительный анализ геологических терминов английского и узбекского языков, проявление таких явлений, как антонимия, синонимия и полисемия и сделаны соответствующие выводы.

**Ключевые слова:** геологические термины, терминология, антонимы, синонимы, полисемия, перевод, словарь.

**KIRISH.** O'zbek va ingliz tilidagi geologik terminlar tizimini yaratish va tahlil qilish tilshunoslik va lingvistika mutaxassislari uchun muhim tajriba hisoblanadi. Bunday tadqiqotlar lug'at zahirasi boyitishga, lingvistikadagi jarayonlar va hodisalarni tushinishga, geologiya fani sohasi bilan tanishishga, geologik atamalar xususiyatlarini o'rganishga,

ularning tuzilishi va qo'llanish sohasini bilib olishga xizmat qiladi.

Hozirgi paytda ESP konsepsiyasi rivojlanib bormoqda. Ingliz tilining xalqaro muloqot tili sifatidagi roli globallashtirish jarayonlarining o'sib borishi bilan kuchayib bormoqda; chet tillarini o'qitishga yangi texnologiyalarning joriy qilinishi



<https://orcid.org/0009-0008-1358-5091>

e-mail:

[barnoturdikulova512@gmail.com](mailto:barnoturdikulova512@gmail.com)

ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Bularning barchasi ingliz tilini o'rganishda, undan har xil sohalarda foydalanishda keng imkoniyatlarni vujudga keltirdi. Endilikda ta'lim mazmuni ta'lim oluvchining talablari va ehtiyojlariga javob berishi muhim ahamiyat kasb etib, o'qitishning metodik tamoyillarini belgilab berdi. Turli yo'nalishlarda ta'lim oluvchi talabalarni ingliz tiliga o'qitishda maxsus tematik matnlardan foydalanishga e'tibor qaratilmoqda, masalan, biologlar uchun biologiyadan, geologlar uchun geologiyadan, iqtisodchilar uchun iqtisodiyotga oid matnlar va h.k. Bunday matnlarni o'rganish, ularning atamashunosligini tushunish ta'lim oluvchi motivatsiyasini oshirib, o'qitish jarayonini samaraliroq qiladi [8,b.117].

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** L.Rixsiyeva "Geologiya terminosistemasidagi ekstralingvistik va lingvistik tasniflash tadqiqi (geologiya sohasidagi ingliz va o'zbek tillaridagi terminlar asosida)" nomli maqolasida geologiya sohasidagi terminosistemaning o'ziga xos xususiyatlari, ekstralingvistika va lingvistika kabi omillar terminologik maydonning asosiy jihatlari ekanligi bayon etilgan[5]. Yana uning "Ingliz va o'zbek tillarida geologiya terminlari bo'yicha lug'at tuzish tamoyillari tadqiqi" nomli maqolasida ingliz va o'zbek tillarida geologiya terminlari bo'yicha terminologik lug'at tuzish tamoyillarining tadqiq jarayonida ushbu ayrim leksikografik prinsiplar qo'llanilgani tahlil qilingan[6]. B.X.Omonov ingliz va o'zbek tillarida geologiyaga oid terminlarining qiyosiy tadqiqini o'rgangan[3]. Sh.S.Razzokberdiyev [4] tadqiqotlarida tojik va ingliz tillaridagi geologik atamalarining tasnifi keltirilib, ularning struktur-semantik xususiyatlari, solishtirilayotgan tillar geologik terminologiyasining shakllantirish usullari tahlil qilingan. So'nggi yillarda tog'-kon sanoati va geologiya sohasida o'zbek tilini rivojlantirish, nufuzini oshirish yuzasidan qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, "Konchilik ishlari atamalarining ruscha-o'zbekcha qisqacha izohli lug'ati", "Qidiruv geofizikasi atamalarining ruscha-o'zbekcha qisqacha izohli lug'ati" chop etildi.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Ingliz tilidagi geologik atamalarni o'zbek tiliga tarjima qilishda ularning morfologik tuzilishini, etimologiyasini, semantikasini tahlil qilish, ya'ni nomlanish tamoyillarini tushunish lozim bo'ladi. Ingliz

geologik atamalarini o'zbek tiliga tarjima qilishda ko'pincha ingliz tilidan rus tiliga, so'ngra o'zbek tiliga tarjima qilinadi. Ingliz va rus atamalari solishtirilib, farqlar aniqlanadi, to'g'ri ekvivalentlar tanlanadi. Faqat shundagina bir xillikka, mumkin qadar yaqinlikka, moslikka erishiladi.

O'zbek va ingliz geologik atamalari tizimida sinonimlar deyarli 20%ni tashkil qiladi. Bu holat geologiyadagi terminologik baza shakllangan tizim ekanligidan dalolat beradi. Sinonimik qatorda ikkala tilda ham 2-3tadan atama uchraydi. Terminlar tizimining bunday xususiyati sinonimlarning o'xshashligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, ham ingliz, ham o'zbek tilida so'z yasaliş jarayonlarining o'xshash tomonlari bor. Chog'ishtirma usulni qo'llaganda shuni kuzatish mumkinki, geologiya atamalari yasalişining asosiy usuli sintaktik bo'lib, affiksatsiya va suffiksatsiya yordamida yangi terminologik birliklar yasalişini mumkin. Boshqa tillardan so'zlarni o'zlashtirish – transterminolizatsiya ham ikkala til uchun xosdir. Ingliz va o'zbek tillarida geologiyaga oid atamalar o'zaro o'xshash va farqli bo'lishi mumkin. Masalan, bir-biridan farqlanadigan atamalar: temir – Iron, gidroliz – Digestion, ruda – Ore, manganit – Acedese, o'xshash atamalar: aklinal – Aclinal, magma – Magma, axroit – Achroite, rutil – Rutil, geologiya – Geology va b.

Geologiya sohasi terminologiyasida sinonimiya, polisemiya, antonimiya, omonimiya kabi munosabatlar uchraydi. Masalan, polisemiya hodisasiga oid terminlar [2]: Bort – 1.Shlixli namunalashda – qayir terrasasining yon qismi. Shlixli namunalalar olish uchun qulay joy; 2.Mineralogiyada – olmosning donador xira kulrang va qora o'simtalari; 3.Konchilikda – kar'yerning yon bag'ri; 4.Zahira hisoblashda – chegaraviy miqdor. Bu kabi terminlarni ingliz tili geologiya sohasiga oid terminlar kesimida ham uchratishimiz mumkin. Masalan: Abandoned 1.used; worked out; 2.dead [7].

Omonimlar bir xil leksik shaklda bo'lib, boshqa-boshqa mazmunni anglatadigan so'zlardir. Masalan, geologiyada: Reef: 1.rif; 2.mineral kon; 3.suv ostidagi yoki suvdan ozgina chiqib turuvchi qoya [9,6.39]. Geologik atamalar orasida sinonim terminlar va ularning ma'nodosh variantlari ikkala tilde uchraydi. Masalan, o'zbek tilida: Barit – baroselenit, volnit, meshellevit, tugshpat, balonya shpati, taroqsimon shpat va h.k. Ingliz tilida: Almerite – Natroalunite; Blockite – Penroseite.

Antonimiya munosabati vujudga kelishi uchun terminologik leksemalarning leksik ma'nolarida qarama-qarshi (kontrast) ma'no munosabati mavjud bo'lishi lozim. Misol sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi geologiyaga oid antonim terminlarni keltiramiz [10]: heavy metal – light metal (og'ir metall – yengil metall); high-grade ores – low-grade ores (sifati yuqori rudalar – sifati past rudalar); thin sheets of the Earth surface – thick sheets of the Earth surface (yer yuzasining yupqa qatlamlari – yer yuzasining qalin qatlamlari).

Ingliz tilida ayniqsa antonimik juftliklardan iborat antonimlar tipologiyasi o'zbek tilidagi antonimlarga deyarli mos tushadi: coherent rock – incoherent rock (sementlashgan jins – sementlashmagan jins; consolidated rock – unconsolidated rock (konsolidatsiyalashgan jins – nokonsolidatsiyalashgan jins); upper horizon – lower horizon (yuqori gorizont – quyi gorizont).

**XULOSA.** Terminologik tizim deganda ta'riflarning tartibga solingan tuzilmasi tushuniladi. Atamalar tizimi maxsus, biron-bir sohaga yoki tarmoqqa oid adabiyotlar bilan ishlashda, geologik izlanishlarda, foydali qazilmalarni qazib chiqarishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Terminologik bazani yaratish jarayoni bir nechta bosqichdan iborat: terminlarni tashkil etuvchi so'zlarni ajratish, so'z yasovchi usullardan foydalanish, olingan so'zlarni mavzularga oid bloklarga taqsimlash, bazadagi elementlar mavzular bo'yicha taqsimlangan jadvallarni tuzish (masalan, minerallar, asbob-uskunalar, ish jarayoni va h.k.).

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Geologiyadan ruscha-uzbekcha izohli lug'at // T.N.Dolimov va b. – T.: O'zbekiston, 1995. – 240 b.
2. Isaxodjayev B.A., Umarxodjayev M.U., Adilov A.A. va b. Geologiya atamalarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. Ikki jildli. – T., 2007.
3. Omonov B.X. "Ingliz va o'zbek tillaridagi geologiyaga oid terminlarning qiyosiy tadqiqi". Fil.f.d. diss. ... aftoreferati. – Toshkent, 2022.

4. Раззокбердиев Ш.С. Структурно-семантический анализ геологической терминологии в таджикском и английском языках. Автореф. дисс... канд.филол.н. Душанбе, 2019.

5. Рихсиева Л. Исследование экстралингвистической и лингвистической классификации терминосистемы в геологии (на основе английских и узбекских терминов). // Общество и инновации. 2021, 2, 3/S (апр. 2021), с.344–348.

<https://inscience.uz/index.php/socinov/article/view/682>

6. Рихсиева Л. Исследование принципов создания словаря геологических терминов на английском и узбекском языках. // Общество и инновации. 2024, 5, 1/S, с.25–29. <https://inscience.uz/index.php/socinov/article/view/3588/3592>.

7. Тимофеев П.П., Алексеев М.Н., Софиано Т.А. Англо-русский геологический словарь: Около 52000 терминов. – М.: Русский язык, 1988.

8. Турдикулова Б.Т. Инглиз геологик атамаларини таржима қилиш усуллари ва компьютер лексикографияси муаммоси /Замонавий таълимда рақамли тизимларни қўллаш: филология ва педагогика соҳасида замонавий тенденциялар ва ривожланиш омиллари. Халқаро илмий-амалий масофавий конференция. – Т.: Tadqiqot, 2020. – 232 б. - Б.216-221. <https://journals.uz/wp-content/uploads/2020/07/filologiya.pdf>.

9. Турдикулова Б., Каримова З. (2023). Инглиз ва ўзбек тилларида геологик терминологияда полисемия ҳодисаси ҳамда уларнинг қиёсий таҳлили. // Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(6 Part 2), 38–40. <https://in-academy.uz/index.php/ejti/article/view/17113/11833>

10. Turdikulova B.T. Ingliz va o'zbek tillarida geologiya sohasiga oid termin va leksemalarning struktur-semantik tadqiqi. Filol.fan... falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2024. – 52 b. - B.17-18. [https://buxdu.uz/media/aftoreferat/turdikulova\\_barno\\_toirkulovna.pdf](https://buxdu.uz/media/aftoreferat/turdikulova_barno_toirkulovna.pdf)

